

## Bank omonati shartnomasi № \_\_\_\_\_

Farg‘ona shahar \_\_\_\_\_

Omonat daftarcha № \_\_\_\_\_

“Madad invest bank” ATB nomidan Ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi bankning Amaliyot boshqarmasi boshlig‘i \_\_\_\_\_ bir tomondan va Mijoz \_\_\_\_\_ Pasport seriyasi \_\_\_\_\_ raqami \_\_\_\_\_ “ ” 2 yilda \_\_\_\_\_ dan berilgan ikkinchi tomondan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bank omonatiga doir 43-bobi (759-770-moddalari) qoidalariga asosan ushbu shartnomani tuzdilar.

**1. Shartnoma predmeti.**

1.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha Bank mijozdan qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni) qabul qilib oladi va ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida hamda tartibda omonat daftarchasi taqdim etilganida omonat summasini qaytarish, unga foizlar to‘lash va mijozning omonat hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini boshqa shaxslarga o‘tkazish haqidagi topshirig‘ini bajarish majburiyatini oladi.

1.2. Omonat turi: Muddatli.

1.3. Muddatli omonat nomi: \_\_\_\_\_

1.4. Muddatli omonatni saqlash muddati: \_\_\_\_\_ oy.

1.5. Muddatli omonat foizi: Yillik \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) foiz.

1.6. Muddatli omonat xisob raqamga qo‘yish va omonatni qaytarish muddati:

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2022 yildan « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 202\_\_ yilgacha.

1.7. Foizlarni to‘lash muddati: Omonatga jalb qilingan mablaglar bo‘yicha foizlar mijoz omonatiga pul mablag‘lari kelib tushgan kundan boshlab omonat qaytarib berilgan kungacha (bunda depozit qaytarilgan kun hisobga olinmaydi), yillik 365 kalendar kunidan kelib chiqib hisoblanadi.

Muddatli omonatga xisoblangan foizlarni xar oyda mijoz tomonidan naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda olishi mumkin. Muddatli omonatga hisoblangan foizlar mijozning ihtiyoriga ko‘ra yozma shaklda yozilgan arizasiga asosan pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

1.8. Muddatli omonatni summasi: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_)

1.9. Muddatli omonat xisobvarag‘i: \_\_\_\_\_

1.10. Valyuta turi: Milliy valyuta SO‘Mda.

1.11. Muddatli omonat tartibiga asosan omonat naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda rasmiylashtirilishi mumkin.

Muddatli omonatga naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda mablag‘ kirim qilinganda bank xizmati undirilmaydi.

Naqd pulda kirim qilingan muddatli omonatdan naqd pulda chiqim qilinganda bank xizmati undirilmaydi. Naqd pulsiz tartibda kelib tushgan mablag‘ni naqd pulda olinganida, naqd yoki naqd pulsiz shaklda kirim qilingan omonatni naqd pulsiz tartibda chiqim qilinganda, chiqim qilingan kundagi bank xizmati tarifiga asosan xaq to‘lanadi.

1.12. Hisoblangan foizlar asosiy summaga qo‘shilmaydi (kapitalizatsiya qilinmaydi).

1.13. Muddatli omonatga qo‘shimcha badal kiritilmaydi.

1.14. Omonat summasiga foizlar omonat bankka tushgan kunning ertasidan boshlab mazkur shartnomada belgilangan muddatgacha xisoblanadi.

Muddatli omonatni mazkur shartnoma bo'yicha saqlash muddati tugagandan so'ng keyingi kundan omonat egasining talab qilib olinguncha omonatiga o'tkaziladi xamda shu kundan boshlab talab qilib olinguncha omonat xisob varoq yopilgan kungacha omonatdagi mablag' qoldig'iga foiz to'lanmaydi.

1.15. Mijoz omonatga qo'yilgan summani bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan muddat tugaguniga qadar qaytarib berishni talab qilishi mumkin. Bunda Mijozga o'tgan davr uchun to'lab berilgan foizlar omonatning asosiy summasidan ushlab qolinib, haqiqatda saqlangan kunlar uchun yillik \_\_\_\_\_ foiz stavkasida hisob-kitob qilinadi.

1.16. Muddatli omonat bo'yicha tuzilgan shartnoma muddati davomida Moliya bozoridagi resurslarga bo'lgan talab va takliflardan hamda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o'zgarganda ham omonatga belgilangan foizlar o'zgarishsiz qoladi.

## **2. Bankning majburiyatlari.**

2.1. Mijozni omonat turiga oid Nizom/Tartib talablari bilan tanishtiradi, pul mablag'ini belgilangan tartibda qabul qilib, uning hisob varag'iga kiritadi.

2.2. Bank, omonatning turidan qat'iy nazar, omonatchi talabiga binoan o'rnatilgan tartibda omonat summasini to'liq yoki uning bir qismini berishi shart. Omonat muddatidan avval to'liq yoki qisman berilganda mazkur shartnoma shartlari buzilgan xisoblanadi xamda mazkur muddatli shartnoma bekor qilinadi.

2.3. Bank tomonidan mijozning bank omonati amaliyotlari to'xtatib qo'yilganda, bank amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvara q yoki omonat egasiga uning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborishi shart.

2.4. Mijoz bankdagi muddatli omonatini garovga qo'yganda yoki kafillik berganda Bank tomonidan kreditlar, mikroqarzlilar va lizing bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun bank omonatidan mablag'lar hisobvara q (omонат) egasining topshirig'isiz hisobdan chiqariladi, bank ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvara q (omонат) egasiga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborishi shart. Xabarnomalar (ma'lumotnomalar) mijozlarga shaxsan, pochta yoki elektron aloqa vositalari va boshqa kommunikatsiya kanallari orqali topshirilishi mumkin.

2.5. Xabarnomani (ma'lumotnomani) olish usuli \_\_\_\_\_ telefon raqamiga SMS orqali yoki telefon kung'irogi orqali amalga oshiriladi.

2.6. Mijoz xabarnoma (ma'lumotnoma) yetkazish usulini bankka shaxsan yoki pochta orqali yozma ariza taqdim etish yo'li bilan o'zgartirish huquqiga ega.

2.7. Xabarnomani (ma'lumotnomani) mijozga yetkazish usuli o'zgarganligi munosabati bilan bank hisobvarag'i yoki omonati shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish talab etilmaydi.

## **3. Bankning huquqlari.**

3.1. Bank omonat hisobvarag'idan boshqa bankka o'tkazilgan naqdsiz to'lovlari va jamg'arma daftarchasi berganligi uchun uning hisobidan o'rnatilgan tartibda haq to'lashni talab qilish huquqiga ega.

3.2. Bank omonat operatsiyalari hamda Mijoz haqidagi ma'lumotlar sir saqlanishini kafolatlaydi. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Mijozning roziligisiz hisobvara qdagi operatsiyalar va Mijoz haqidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga berilishi mumkin.

3.3 Adliya Vazirligida 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro'yhatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat" Qoidalari talablariga asosan, bank mijozning pasport ma'lumotlari bilan tanishishi asosida, mijozning identifikatsion

ma'lumotlarini NCI bazasining "Klienti dop. rekviziti" moduliga kiritadi.

3.4. Bank tomonidan gumonli yoki shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, bunday operatsiyalar haqida xabar beradi.

3.5. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, Bank vujudga kelgan asoslarga ko'ra omonat hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga yoki amalga oshirishni rad etishga haqlidir.

"Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat" Qoidalari talablariga asosan ma'lumot berishga va Mijozning omonat xisob raqamdagi bank amaliyotlarini vaqtincha to'xtatib turishga, ma'lum muddatga to'xtatib turishga xaqli.

3.6. "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat" Qoidalari talablariga asosan yoki xuquqni muxofaza qiluvchi organlar, majburiy ijro organlarining tegishli qarorlariga asosan muddatli omonat xisob varag'iga band solinganda band solingan davr uchun muddatli omonatga foizlar xisoblanmaydi.

3.7. Sud, tergov va prokuratura organlari hamda sud ijrochilarining undiruvni qarzdorning pul mablag'lari va boshqa mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi qarorlarini ijro etishda qarzdorlik omonat hisobidan undirilganda muddatli omonat bo'yicha foizlar to'lanmaydi, oldin to'lab berilgan foizlar esa asosiy summadan chegirib qolinadi.

3.8. Omonatchi vafot etgan taqdirda, Bank notarial tasdiqlangan guvohnomaga, vasiyatining asl nusxasiga asosan omonat vasiyat qilingan shaxsga omonat summasi va unga hisoblangan foizlarni berishga haqli.

3.9. Bank mijoz tomonidan taqdim etilgan to'lov xujjati bo'yicha xalqaro sanksiyalarga tushgan tushmaganligini, tushish xavfini tekshirishga xaqli.

Bank, mablag'larni oluvchi (yoki uning bankining yoki sotib olayotgan maxsulotining va x.k.z) larning xalqaro sanksiyalarga tushganligi, tushish xavfi mavjud bo'lganda, bank amaliyotini o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, amaliyot miqdorini chegaralash, amaliyotni cheklash (rad etish), to'lov xujjatini ijroga qabul qilmaslik huquqiga ega yoki amalga oshirilayotgan amaliyotlar mijozning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va mijoz bilan mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

3.12. Mijoz tomonidan o'tkazilayotgan bank amaliyotlariga doir qo'shimcha xujjatlar bank tomonidan so'ralgan yoki talab qilinganda xujjatlar mijoz tomonidan to'liq taqdim qilinmasa, bank mijozning topshiriqlarini bajarmasligi, bank amaliyotini to'xtatib qo'yishi, bank hisob varag'ini bir tomonlama bekor qilish xuquqiga ega.

#### **4.Mijozning majburiyatlari.**

4.1. Shartnoma tuzilgan kuni mazkur shartnomaning 1.8-bandida ko'rsatilgan summani omonat hisobvarag'iga topshirishi yoki o'tkazishi;

4.2. Mijozning manzili, telefon raqami, familiyasi, ismi yoki sharifi o'zgargan, shuningdek, uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar almashgan taqdirda, mijoz yuz bergan o'zgarishlar to'g'risida 5-kalendar kun davomida Bankni yozma ravishda xabardor qilishi hamda zarur bo'lganda yangi hujjatning nusxasini taqdim qilishi;

4.3. Mijoz omonatga qo'yilgan summani bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan holatlar yuz bergunga qadar qaytarib berishni talab qilish niyatida bo'lsa, o'zining bu niyatidan bankni omonatni olishni mo'ljallayotgan sanadan kamida 1 (bir) oy oldin xabardor qilishi lozim.

4.4. "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat" Qoidalari talablariga muvofiq bank xodimi tomonidan so'ralgan xujjatlarni taqdim etadi.

4.5. Garovga yoki kafillikka ko‘yilgan muddatli omonatidagi mablag‘larni talab qilib olinguncha omonatiga o‘tkazilishi xamda garovga olgan yoki kafillikni qabul qilgan tomonning to‘lov talabnomasi asosida uning roziligisiz yoki roziligi asosida omonat xisob raqamidan pul mablag‘larini xisobdan chiqarilishiga bankka rozilik xati beradi.

4.6. O‘tkazilayotgan bank amaliyotlariga doir xujjatlarni bankning birinchi talabi bilan to‘liq hamda sifatli holatda bankka taqdim qilinishi uchun javobgardir.

## **5.Mijozning huquqlari.**

5.1.Muddatli omonatga qo‘yilgan mablag‘larni shaxsan o‘zi tasarruf qilish yoki bunday huquqni qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan ishonchnomani rasmiylashtirish yo‘li bilan uchinchi shaxslarga taqdim qilish;

5.2. Omonat daftarchasi yo‘qotilgan yoki yaroqsiz holga keltirilgan bo‘lsa, yangi omonat daftarchasini berishni so‘rab bankka murojaat qilish;

5.3.Muddatli omonat mablag‘ining qoldig‘i, kirim-chiqim operatsiyalari to‘g‘risidagi axborotni bankdan, “SMS-banking” dasturi yoki Internet tarmog‘ida ochilgan bankning veb-saytidagi shaxsiy kabineti orqali olishi mumkin.

5.4. "BANKMOBILE" va internetdagi shaxsiy kabinetga ulangan holda hisoblangan foizlarni ko‘rish hamda plastik karta hisob raqamiga o‘tkazish;

5.5.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 762-moddasiga muvofiq omonatni muddatidan avval qaytarilishini talab qilishga haqli.

5.6.Mijoz omonat muddati tugaganidan so‘ng omonatni yopishi va omonatga hisoblangan foizlarni olishi yoki mavjud omonat turlaridan biriga qayta rasmiylashtirishi mumkin.

5.7. Mijoz muddatli omonatidagi mablag‘ni garovga yoki kafillikka qo‘yishga xaqli.

## **6. Maxsus shartlar.**

6.1. Omonatning topshirilganligi va pul mablag‘ining bankda belgilangan tartibda bank kassasiga qabul qilinganligini tasdiqlovchi to‘lov kvitansiyasi, o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan ushbu bank omonati shartnomasi hamda omonat daftarchasi bir yo‘la mavjud bo‘lganligi bilan tasdiqlanadi.

6.2. Bank omonati shartnomasi shartlariga omonatchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o‘zgartirishlarni bank tomonidan bir tomonlama kiritilmaydi.

6.3. Mijoz qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha zaruriy hujjatlar taqdim etilganidan keyin bank tomonidan hisobvaraqlar ochishda sababsiz kechiktirilganlik yoki ochishdan bosh tortganlik, shuningdek mazkur turdagi hisobvaraq ochish uchun ortiqcha hujjatlarni talab qilganligi uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,02 foizi miqdorida, hisobvaraqlarida mablag‘ bo‘lganida o‘z vaqtida naqd pul bermaganlik uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,005 foizi miqdorida, hisobvaraqlariga pullarni hisobga kiritish va hisobdan chiqarish tartibini buzganlik uchun, elektron to‘lovlarni amalga oshirishning va xato amalga oshirilgan elektron to‘lovlarni qaytarishning o‘rnatilgan muddatlarini buzishni istisno etgan holda, bank har bir holat uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,01 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

Elektron to‘lovlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlari bank tomonidan buzilgan taqdirda, u mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to‘lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to‘lov summasining 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘lashi shart.

Bankning aybi bilan elektron to‘lov noto‘g‘ri amalga oshirilgan taqdirda, mablag‘ni xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazishi shart. Aks holda, mijoz bankdan mablag‘larni qaytarishni, shuningdek kechiktirilgan har bir kun uchun noto‘g‘ri amalga oshirilgan elektron to‘lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin noto‘g‘ri amalga oshirilgan elektron to‘lov summaning 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan

miqdorda penya to'lashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

## **7. Fors major xolatlar.**

7.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarilmaganlik shartnoma tuzilgandan keyin, taraflar oldindan ko'ra olishmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etishi mumkin bo'lmagan favqulotda tusdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlarini (urush, zilzila, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar) hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

7.2. Yengib bo'lmaydigan kuch holatlariga asoslanadigan taraf boshqa tarafni bunday holatlar boshlanganligi to'g'risida yozma ravishda zudlik bilan xabardor qilishi shart, shu bilan birga istalgan tarafning talabiga ko'ra holatlarning boshlanishi faktini tasdiqlovchi, tegishli organ tomonidan berilgan hujjat taqdim etilishi kerak.

## **8. Taraflarning javobgarligi.**

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan, shartnoma shartlarini buzgan taraf O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

## **9. Nizolarni hal qilish tartibi.**

9.1. Shartnomaga o'zgartirish kiritilishi, ijrosi va bekor bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan nizolar, o'zaro muzokaralar yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi sudlari orqali hal etiladi.

9.2. Ushbu shartnoma teng yuridik kuchda 2 nus'hada tuzilib, biri Bank bo'limida qolib, ikkinchisi Mijozga beriladi. Shartnomaning har ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

Ushbu omonat turiga oid me'yoriy xujjatlar bilan tanishdim:

## **10. Tomonlarning yuridik manzillari va bank rekvizitlari:**

**BANK**

**Mijoz**

“Madad Investbank” Amaliyot bo'limi  
Manzili: O'zbekiston Respublikasi,  
Farg'ona viloyati, Farg'ona shaxar,  
Mustaqillik ko'chasi 312 uy  
x/r 29801000900001142001  
STIR 207246047  
Tel/faks:73-241-70-31

Manzili \_\_\_\_\_

Pasport seriyasi va rakami \_\_\_\_\_

Berilgan sana \_\_\_\_\_

Qaerdan berilgan \_\_\_\_\_

Telefon raqami \_\_\_\_\_

Mijoz \_\_\_\_\_

Imzosi \_\_\_\_\_

Amaliyot bo'limi boshlig'i:

Bosh xisobchi:

Xuquqshunos